

Talabalarda Ingliz Tilini O'rgatishda Kommunikativ Ko'nikmalarni Rivojlantirishning Asosiy Yondashuvlari Va Usullari

Utanov Utkir Qurbonovich¹, Qurbonova Setora Utkir qizi²

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy yondashuvlari va samarali usullari tahlil qilindi. Kommunikativ yondashuv talabalarining amaliy muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, dars jarayonida rolli o'yinlar, guruhlarda ishlash va texnologiyalardan foydalanish kabi usullar muhim o'rin tutadi. Maqolada talabalarining lingvistik bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishga yordam beruvchi yondashuvlar ko'rib chiqildi.

Tayanch so'zlar: kommunikativ yondashuv, ingliz tili, talaba, ko'nikmalar, interaktiv usullar, rolli o'yinlar, amaliy muloqot, texnologiyalar.

KIRISH

Bugungi globallashtgan dunyoda ingliz tilini bilish xalqaro muloqotdan tashqari, turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Til bilishning ahamiyati, ayniqsa, talabalar uchun yanada dolzarb bo'lib, ularga nafaqat xalqaro hamkorlikda, balki kasbiy rivojlanishda ham ko'maklashadi. Shu sababli, talabalarga ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv bu jarayonda asosiy o'rin tutib, talabalarining lingvistik bilimlarini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy ko'nikmalarga aylantirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali talabalar tilni real hayotdagi suhbat va muloqotlarda qo'llash malakasini shakllantiradilar. Globallashtuv sharoitida, ayniqsa, har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun ingliz tilini amaliy jihatdan bilish talab qilinadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarga erkin ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Kommunikativ yondashuvning o'ziga xos jihati shundaki, u talabalarga nazariy bilimlar berishdan ko'ra ko'proq, ularni amaliyotda qo'llashga urg'u beradi. Yondashuvning asosiy maqsadi talabalarining nazariy bilimlarini amaliy muloqotga aylantirib, ularni real hayotdagi vaziyatlarda suhbatga tayyorlashdir. Lingvistik nazariya asosan qoidalarga asoslangan bo'lsa, kommunikativ yondashuv bu qoidalarni real vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi. Ya'ni, talabalar tilni nazariy jihatdan emas, balki jonli muloqotda foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularning nafaqat til bilimlarini, balki kommunikatsion malakalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuv talabalarini tilni muloqot vositasi sifatida samarali qo'llashga tayyorlab, ularning til o'rganish jarayonini hayotiy sharoitlarda muloqot qilishga yo'naltiradi.

Bu yondashuvning birinchi asosiy xususiyati – amaliy orientatsiya. Bu shuni anglatadiki, talabalarga tilni o'rganish jarayonida uni hayotdagi turli real sharoitlarda qanday qo'llash kerakligi o'rgatiladi. Masalan, do'konda xarid qilish, savdo-sotiq qilish, sayohat qilish yoki ishbilarmonlik muzokaralari

¹ O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

² Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 1-kurs magistranti



kabi vaziyatlarda o'z fikrlarini tushunarli tarzda ifodalashga o'rgatiladi. Bu esa tilni amaliy o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va foydali qiladi.

Ikkinchi xususiyat – to'rt ko'nikmani integratsiyalash, ya'ni tinglash, gapirish, o'qish va yozishning birgalikda rivojlantirilishi. An'anaviy til o'rgatish usullarida bu ko'nikmalar ko'pincha alohida o'rganiladi, lekin kommunikativ yondashuvda bu ko'nikmalarni bir vaqtda o'rgatish orqali talabalar tilni har tomonlama egallashlari ta'minlanadi. Masalan, talabalar biror mavzu bo'yicha matnni o'qib, uni tinglab va keyin shu mavzuda suhbatlashib, yakunda o'z fikrlarini yozma tarzda ifodalashga o'rgatiladi. Bu jarayon ularning ko'nikmalarini bir-birini to'ldiradigan tarzda rivojlantiradi va ularga tilni har xil kontekstlarda ishlatishga yordam beradi.

Uchinchi xususiyat – talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undashdir. Kommunikativ yondashuvda talabalar o'quv jarayonining markazida bo'ladi, ya'ni ularning faolligi va muloqotdagi ishtiroki juda muhim. Talabalar o'quv jarayonida mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va turli muloqot usullarini o'rganadilar. Ular o'zaro savol-javob qilish, guruhlarda ishlash, rolli o'yinlarda ishtirok etish orqali bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar. Bunday faol ishtirok ularning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga, shuningdek, muloqot jarayonida o'zlariga ishonch hosil qilishlariga yordam beradi. Talabalar mustaqil tarzda fikrlarini ifodalay olishlari va turli muloqot vaziyatlarida o'z o'rnini topa olishlari uchun bu yondashuv ularga katta imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda, kommunikativ yondashuv talabalarining tilni nafaqat o'rganish, balki uni hayotda ishlatish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nazariy qoidalardan amaliy ko'nikmalarga o'tib, tilni jonli muloqotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida interaktiv usullar va talabchan yondashuvlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular talabalarining tilni muloqot vositasi sifatida samarali qo'llashlariga yordam beradi. Bunday usullardan biri rolli o'yinlar hisoblanadi. Rolli o'yinlar talabalarga real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatini yaratadi va ular ushbu jarayonda o'zaro muloqot qilishni o'rganadilar. Talabalar turli xil rollarda bo'lib, vaziyatlarni o'z ichiga olgan suhbatlarni olib boradilar va bu orqali tilni muloqot vositasi sifatida ishlatishni o'zlashtiradilar. Rolli o'yinlar talabalarining lug'at boyligini oshiradi, ularni suhbatga kirishish va munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, talabalarda tilga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi. Bu usul talabalar o'rtasida tilni jonli va faol qo'llashni o'rgatadi.

Yana bir samarali usul bu juftlik va guruhlarda ishlashdir. Juftlik va guruhlarda ishlash talabalarga bir-birlaridan o'rganish va ko'proq muloqot qilish imkoniyatini beradi. Talabalar bu jarayonda o'zaro fikr almashadilar, yangi ko'nikmalar hosil qiladilar va tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Guruhlarda ishlash talabalarni faol tinglashga va suhbatni davom ettirishga o'rgatadi, bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, kooperativ o'qitish orqali talabalar bir-biridan amaliy tajriba olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday o'quv jarayonida talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytiradilar, bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Taqdimotlar ham kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar tomonidan mustaqil tayyorlangan taqdimotlar ularga og'zaki muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. Taqdimotlar talabalarga nafaqat o'z fikrlarini tizimli ravishda bayon qilish imkoniyatini beradi, balki auditoriya oldida chiqish qilish, omma oldida gapirish madaniyatini ham o'rgatadi. Ushbu usul orqali talabalar o'z nutqlarini rejalashtirishni, asosiy fikrlarni izchil bayon qilishni va auditoriyaga tushunarli tarzda fikrlarini yetkazishni o'rganadilar. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, kelajakdagi nutqiy faoliyatlari uchun muhim ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shuningdek, eshitish matnlari orqali tinglash ko'nikmasini rivojlantirish juda muhim. Tinglash ko'nikmasini shakllantirish uchun talabalarga real hayotdagi suhbatlar, intervyular yoki nutqlarni tinglash imkoniyatini yaratish lozim. Ushbu jarayon talabalarni turli talaffuz va aksentlar bilan tanishtiradi va ularning turli xil ovoz va talaffuzlarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu usul orqali talabalar turli mavzularda eshitilgan materiallarni tushunishni o'rganadilar, bu esa ularning umumiy til bilimi va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.



Zamontaviy texnologiyalar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda juda samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayoniga texnologiyalarni qo'shish talabalar uchun til o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli jarayonga aylantiradi. Texnologiyalar orqali talabalar ko'proq amaliyot qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ular tilni yanada chuqurroq o'zlashtira oladilar. Masalan, onlayn o'quv platformalari orqali talabalar turli xil mashqlarni bajarib, o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ushbu platformalar yordamida talabalar interaktiv tarzda mashq qilish imkoniga ega bo'ladilar va o'z ko'nikmalarini yaxshilaydilar.

Shuningdek, video va audiomateryallardan foydalanish til o'rgatish jarayonida juda samarali hisoblanadi. Video darslar orqali talabalar real hayotdagi suhbatlarni tinglash va kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Bu ularning tinglash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Videomateriallar orqali talabalar turli vaziyatlardagi muloqotlar bilan tanishadilar, bu esa ularning tilni jonli va amaliy tarzda o'rganishlariga yordam beradi. Audiomateriallar ham talabalarning tinglash qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular turli aksentlar va talaffuzlar bilan tanishib, turli xil suhbatlarni tushunishga o'rganadilar.

Mobil ilovalar ham ingliz tilini o'rganishda juda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishga mo'ljallangan turli mobil ilovalar talabalarga mustaqil ravishda o'z bilimlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu ilovalar orqali talabalar o'zlariga qulay vaqtda, o'z xohishlariga ko'ra mashqlarni bajarishlari va o'quv jarayonini boshqarishlari mumkin. Mobil ilovalar talabalarga grammatika, lug'at, talaffuz va muloqot ko'nikmalarini o'zlari mustaqil ravishda mashq qilish orqali rivojlantirish imkonini beradi. Texnologiyalar yordamida talabalar til o'rganish jarayonini tezlashtiradilar va ularni kundalik hayotda ishlatishga tayyor bo'lishadi.

Kommunikativ yondashuvda o'qituvchi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda ko'proq yo'l ko'rsatuvchi va motivator rolini bajaradi. U dars jarayonida talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularni muloqot qilishga rag'batlantiradi. O'qituvchi o'zining markaziy mavqeyini emas, balki talabalar faolligini ustuvor qo'yadi va darsni shunga mos ravishda tashkil qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning ehtiyojlarini diqqat bilan kuzatadi va ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni tuzadi. Darslar interaktiv usullar asosida tashkil etilib, talabalar faolligiga katta e'tibor qaratiladi. O'qituvchi talabalarning mustaqil ravishda fikr bildirishlariga, o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga yordam beradi va ularga bu jarayonda kerakli maslahatlarni berib boradi. O'qituvchi talabalarning til o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarini kuzatib, ularga qanday qilib bu qiyinchiliklarni yengish mumkinligi haqida ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, o'qituvchi har bir talabaga individual yondashib, ularning til o'rganish jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va shu asosda yordam beradi.

Baholash jarayoni ham kommunikativ yondashuvda o'ziga xosdir. An'anaviy baholashda ko'pincha grammatik qoidalarga rioya qilish yoki yozma ishlarni tekshirishga urg'u beriladi. Biroq, kommunikativ yondashuvda baholash yanada kengroq maqsadlarni o'z ichiga oladi. Baholash jarayonida talabalar nafaqat grammatik to'g'riligi, balki ularning muloqotdagi ishtiroki ham inobatga olinadi. Ularning suhbat olib borish qobiliyati, fikrlarini aniq va izchil bayon qilishlari, faol tinglash qobiliyati baholanadi. Talabalarning suhbatda qanday ishtirok etishi, suhbatga kirishish va uni davom ettirish qobiliyatlari ham baholash jarayonida asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil fikrlashi va o'z pozitsiyalarini himoya qila olishlari ham baholashning muhim qismidir. Shunday qilib, kommunikativ yondashuvda baholash talabalarni yanada faol va mustaqil bo'lishga undaydi, ularning muloqotdagi ishtirokini rag'batlantiradi va ularning til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini aniqroq o'lchashga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, Ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Yondashuv va usullarni to'g'ri tanlash orqali talabalar tilni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtiradilar. Rolli o'yinlar, juftlik va guruhda ishlash, taqdimotlar va texnologiyalardan foydalanish kabi usullar talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shu sababli, o'qituvchilar talabalarning ehtiyoj va qobiliyatlarini inobatga olib, dars jarayonini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etishlari lozim.



Takliflarimiz quyidagilardan iborat:

1. Interaktiv va real hayotga asoslangan mashg'ulotlarni kengaytirish: Talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darslarda rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar va taqdimotlar kabi interaktiv metodlarni ko'proq qo'llash lozim. Bu usullar o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish malakalarini oshiradi va ularga real hayotdagi suhbatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.
2. Texnologiyalardan faol foydalanish: Talabalar kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish kerak. Onlayn platformalar, audiovizual resurslar va mobil ilovalar talabalarga mustaqil o'rganish imkonini beradi va ularning amaliy tajriba orttirishiga ko'mak beradi.
3. Baholash tizimida kommunikativ ko'nikmalarni inobatga olish: Baholash jarayonida grammatik qoidalarga e'tibor qaratish bilan birga, talabalarning muloqotdagi ishtiroki, erkin fikr almashish qobiliyati va suhbat davomida o'z fikrlarini to'g'ri ifoda etish ko'nikmalarini ham hisobga olish zarur. Shu orqali til o'rganish jarayonining to'liqroq baholanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, D. (2018). Til o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. To'xtasinov, U. (2020). Ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Ergasheva, M. (2017). Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchining roli. Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Universiteti nashriyoti.
4. Xudoynazarovna, Q. O. Combination of National and Foreign Experience in Increasing the Social Activity of Female Teachers.
5. Qosimova, O., & Mamarasulov, U. (2022). THE ROLE OF PEDAGOGIC WOMEN AND GIRLS IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF YOUNG PEOPLE. *Science and innovation*, 1(B8), 2392-2397.
6. Kasimova O. K. The Schools for Girls in Central Asia: the Meaning of Education and Methodology //Eastern European Scientific Journal. – 2016. – №. 3.
7. Qosimova M. Y., Yusupova N. X., Qosimova S. T. On the uniqueness of the solution of a two-point second boundary value problem for a second-order simple differential equation solved by the bernoulli equation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 9. – C. 969-973.
8. Qurbonovich U. U., Qizi U. S. S. The role of creative aspects in the work of future music teachers. – 2022.
9. Qurbonovich U. U., Mamarajabovich A. I. METHODS FOR INCREASING MOTIVATION AND LEARNING EFFICIENCY THROUGH PEDAGOGICAL APPROACHES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES //AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE. – 2025. – T. 3. – №. 5. – C. 91-95.
10. Qurbonovich, U. U. (2022). Factors of Development Of Teacher's Spiritual Image. *Journal of Positive School Psychology*, 6(9), 4472-4475.

